

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.Xalikov	
Ta'lim tizimida testologiyadan foydalanishning nazariy asoslarini takomillashtirishning pedagogik ahamiyati	211
A.A.Mirzayev	
Ibn al-Arabiyning tasavvufiy qarashlarining asosiy yo'nalishlari va yondashuvlari	217
S.A.Azamova	
Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik tarbiyaning samarali yo'llari va bosqichlari	223
M.I.Yusupova	
Expression of the concept of "Patriotism" in the russian-language media.....	231
M.M.Aralov	
OTM talabalarining grafik tayyorgarlikligini rivojlantirish vositasi sifatida	235
U.Abdullayeva	
Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirishda ekologik ta'lim va tarbiyaning ahamiyati hamda ularning qiyosiy tahlili	124
Y.J.Mirzaaxmedova	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarida o'zbek musiqasi tarixiga doir bilimlarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	241
J.X.Boysunov	
Yoshlarda ma'naviy madaniyatini yuksaltirishning falsafiy mohiyati.....	246
B.I.Beshimov	
Jinoyatchilik ijtimoiy hodisa va uning tahlili	250
Z.N.Usmonov, M.A.Mirzajonova	
Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining jismoniy madaniyat fani nazariy bilim asoslarini o'qitishni monitoringi	255
M.X.Raxmonova, M.O.Karimova	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy potensialini pivojlantirishning dolzarbligi va mohiyati....	260
N.S.G'afurova	
Ijtimoiy tarmoqlar punktuatsiyasining pragmatikasi.....	261
G.M.Камалова	
Методология преподавания физической культуры в вузах на современном этапе.....	266
R.M.Ubaydullayev	
Qishloq qizlari jismoniy tayyorgarligini tabaqalashtirilgan metodika orqali baholash	270
A.K.Nafasov	
Tarixda sivilizatsiyalarning shakllanishi tarixi xususida	274
F.A.Ikramov	
Mustaqil ta'lim faoliyati asosida talabalarning huquqiy ta'limini tashkil etishning pedagogik omillari.....	277
D.T.Tursunova	
Talaba xotin-qizlar ijtimoiy faolligini rivojlantirishning mazmuni va psixologik asoslari	281
D.D.Boymirzaeva	
O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy faoliyat va boshqaruv amaliyotining mavjud muammolari tahlili	286
I.I.Soliyev	
Yangi O'zbekistonda OTMlar boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish vazifalari.....	292
S.S.Qozaqova	
Hikoya tuzishga o'rgatish maktabgacha yoshdagi bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida	298
F.A.Askarov	
Jismoniy tarbiya darsi jarayonida interfaol usullar ta'lim samaradorligini asosiy bo'g'ini sifatida ..	304
D.Z.Isaboyeva	
Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik psixologik asoslari (xalqaro baholash dasturi)	308
M.I.Ne'matov	
O'quvchilarning jismoniy madaniyatini rivojlantirishning etno-pedagogik asoslarini takomillashtirish	311

JINOYATCHILIK IJTIMOY HODISA VA UNING TAHLILI

ПРЕСТУПНОСТЬ - СОЦИАЛЬНОЕ ЯВЛЕНИЕ И ЕГО АНАЛИЗ

CRIME - A SOCIAL PHENOMENON AND ITS ANALYSIS

Beshimov Baxtiyor Iskandarovich¹¹Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada jamiyatning o'ziga xos hodisasi sifatida qaraladigan jinoyatchilikning tavsifi unga oid ilmiy qarashlar tahlil etilgan. Jinoyatchilikning paydo bo'lishi uning oqibatlari va jamiyat hayotiga salbiy ta'siri, unga qarshi chora tadbirlarning sifatini oshirish uchun qilinadigan ishlarning nazariy tomonlari ochib berilgan.

Аннотация

В данной статье анализируются научные взгляды на описание преступности, которая рассматривается как особое явление общества. Раскрываются последствия возникновения преступности и ее негативное влияние на жизнь общества, теоретические аспекты работы по повышению качества мер борьбы с ней.

Abstract

This article analyzes scientific views on the description of crime, which is considered as a special phenomenon of society. The consequences of the emergence of crime and its negative impact on the life of society, theoretical aspects of work to improve the quality of measures to combat it are revealed.

Kalit so'zlar: *definiitsiya, ta'rif, tavsif, jinoyat, jinoyatchilik, jinoyiy harakat, jazo, xulq-atvor, meyor, huquqiy madaniyat, huquqiy savodxonlik.*

Ключевые слова: *определение, определение, описание, преступление, преступление, преступное деяние, наказание, поведение, норма, правовая культура, правовая грамотность.*

Key words: *definition, definition, description, crime, crime, criminal act, punishment, behavior, norm, legal culture, legal literacy.*

KIRISH

Jinoyatchilikning o'ziga xos shakllari, belgilari va turlari farqlanadi. Ularga doir ilmiy manbalar tahlili jinoyatchilikning mazmun mohiyatini chuqurroq, bilishga, tushunishga yo'l ochadi. Jinoyatchilik nisbatan ommaviy xususiyatga ega bo'lgan va ayni vaqtda odamlar va jamiyat manfaatlariga ijtimoiy xavf tug'diradigan, shu bilan birga amaldagi jinoyat qonunchiligida jinoyat deb e'tirof etilgan ijtimoiy belgilangan qilmishlar, harakatlar, harakatsizlikning muayyan majmui darajasida qaraladi. Jinoyatchilikning mazmuni u nafaqat obyektiv, balki ijtimoiy hodisa, ya'ni kishilik jamiyati va uning qonunlari, axloqiy normalari bilan bog'liq ekanligini anglatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jinoyatchilik tushunchasi va uning belgilari "jinoyatchilik" tushunchasi kriminologiyaning eng muhim va ayni vaqtda eng qamrovli tushunchasidir. Jinoyatchilikka miqdoriy (statistik) va sifat (sotsiologik) tomonlardan yondashish mumkin. Miqdoriy (statistik) nuqtai nazardan jinoyatchilik bir emas, ko'plab jinoyatlar, ularning muayyan yig'indisi, ya'ni g'ayri ijtimoiy va xavfli qilmishlarning qandaydir majmui mavjudligini anglatadi. Amerikalik olim Veron Foks dunyoni to'liq bilib bo'lmashini qayd etib, kinoya bilan, "Inson xulq-atvorini biron-bir fan nuqtai nazaridan tushunib yetishga harakat qilish besh nafar ko'rning filni tavsiflashga urinishini eslatadi" [1.17;]-deb yozadi. Demak, hodisalar harakatining har qanday ichki qonuni muayyan hodisalar keng miqyosda ro'y bergan holdagina muayyan tarzda namoyon bo'ladi. Ayrim g'ayriijtimoiy qilmishlar jinoyatchilik hodisasini vujudga keltirishi mumkin emas. Jinoyatchilikning miqdor jihati muhim ahamiyatga ega. Lekin unga ortiqcha ahamiyat yuklash ham to'g'ri bo'lmaydi. Bu haqida professor V.M.Kogan jinoyatchilikning ijtimoiy xossalari o'rganib chiqib, unga: "Muayyan joyda muayyan vaqtda sodir etilgan barcha jinoyatlar majmui hamda ushbu jinoyatlarni sodir etishda aybdor barcha jinoyatchilar majmui" [2.37;] , deb ta'rif beradi. Shu bilan birga, "jinoyatchilik" tushunchasini uning sifati va mazmuni nuqtai nazaridan o'rganish muhimroqdir. Bu kriminologiyaning predmeti bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Jinoyat huquqi, jinoyat protsessi va umuman kriminalistika jinoyat shakllarini o'rganish bilan cheklanadi va shu boisdan muayyan qilmishni davlat tomonidan tartibga solish va uni jinoyat-huquqiy, jinoyat-protsessual va kriminalistika mezonlariga ko'ra baholash muammolarini

ishlab chiqadi. Kriminologiya esa, asosan jinoyatchilik mazmunini (mohiyatini) o'rganadi. Shu nuqtai nazardan "jinoyatchilik" tushunchasi uning jamiyat taraqqiyoti, eng avvalo uning ishlab chiqarish va taqsimlash munosabatlari holati bilan bog'liq obyektivligini aks ettiradi. Jinoyatchilik tushunchasi jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida, nafaqat ayrim ijtimoiy xavfli qilmishlar, balki ularning muayyan majmui mavjudligi va u boshqa ijtimoiy hodisalar bilan bog'liqligi tushunib yetilganidan so'ng paydo bo'ldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Binobarin, jinoyatchilik tushunchasining mazmuni u nafaqat obyektiv, balki ijtimoiy hodisa, ya'ni kishilik jamiyati va uning qonunlari bilan bog'liq ekanligini anglatadi. Shuning uchun ham jinoyatchilik tushunchasiga ta'rif bergan ko'pgina mualliflar unga eng avvalo ijtimoiy hodisa sifatida qaraydi. Jinoyatchilik nafaqat nisbatan ommaviy, obyektiv va ijtimoiy, balki tarixan o'zgaruvchan hodisa hamdir. Har bir muayyan jinoyat – jinoyatchilikning "elementar zarrasi"dir[3.16;]. Har qanday jinoyat inson xulq-atvorining muayyan ko'rinishi sanaladi. Inson tabiati, xulq atvorini o'rganadigan ilmiy adabiyotlarda xulq-atvor deganda shaxsning erkin faolligi, ya'ni ko'zlangan maqsad anglab yetilgan va yuz berayotgan jarayonlarni nazorat qilish imkoniyati mavjud bo'lgan faollik tushuniladi. Lo'ndaroq qilib aytganda, subyekt uchun muayyan mazmun kasb etuvchi xulq-atvorni inson xulq-atvori, deb tavsiflash mumkin [4.14;] Bu yerda shaxsning ongli, shu jumladan yanglish, salbiy va g'ayri huquqiy xulq-atvori to'g'risidagi qarash ham mavjud. Inson xulq-atvoridagi o'zgarishlar jamiyat hayotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatganidek, jamiyat hayoti ham uning xulq atvoriga ta'sir etadi.

Insoniyat taraqqiyoti davomida jamiyat rivoji va ravnaqi uchun xizmat qiluvchi ezgu muddaolarni maqsad qilib olgan hodisalar qatori unga zid ravishda, ba'zan jinoyat turkumiga kiruvchi hodisalar ham sodir bo'ladi. Jinoyat, axloqiylik tamoyillari asosida tarkib topgan huquqiy talablar, qonun-qoidalar ustuvor jamiyatda ushbu meyorlarga mensimasdan munosabatda bo'lish oqibatida shaxsiy manfaatlar ustunligi hamda o'zgarlar haq-huquqlarini buzish natijasida sodir etilgan hodisa hisoblanadi. Jinoyat va jinoyatchilikka tadqiqotlar, ilmiy manbalarda turlicha tavsif, ta'riflar berilgan. Jinoyatchilikka nafaqat ommaviy, obyektiv va ijtimoiy, balki tarixan o'zgaruvchan hodisa sifatida ham qaraladi. Turli jamiyatlarda, turli tarixiy sharoitda va turli kishilarning ayni bir g'ayriijtimoiy qilmishlari xilma-xillikda baholanishini kuzatish mumkin. Jinoyatchilik o'z ijtimoiy mohiyatiga ko'ra ham, namoyon bo'lishiga ko'ra makon va zamonda ham o'zgaruvchandir. Jinoyatlar doirasi nafaqat turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda, balki hatto ayni bir tuzumga mansub davlatlarda bir marom va bir xilda emas. Shunga ko'ra, jinoyatchilik ayni bir tuzumga mansub bir davlat ijtimoiy hayotida ham o'zgarib turgan.

Turli tarixiy sharoitda va turli jamiyatlarda kishilarning ayni bir g'ayriijtimoiy qilmishlari har xil baholanganligini jinoyatchilikka bog'liq adabiyotlarda ko'rish mumkin. Jinoyatchilik o'z ijtimoiy mohiyatiga ko'ra ham, namoyon bo'lgan joyiga ko'ra ham o'zgaruvchan xarakterda bo'ladi. Masalan, jinoyatlar doirasi nafaqat turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda, balki hatto ayni bir tuzumga mansub davlatlarda ham bir xil emasligi kuzatiladi. Shuningdek, jinoyatlar doirasi ayni bir tuzumga mansub bir davlat tarixida ham o'zgarib turadi. Ishlab chiqarishning rivojlanmaganligi, juda katta hududda kam aholi yashashi ibtidoiy odamni o'z xulq-atvorini urug' va qabila manfaatlariga moslashtirishga majbur etardi. Urug'doshlik jamiyati sharoitida yashagan odamlarning ko'p sonli avlodlari kollektivizm, o'zaro yordam, tenglik, erkinlik, halollik, qariyalar, bemorlarga g'amxo'rlik tuyg'ulariga asoslangan urf-odatlarini shakllantirgan edilar. Ammo vaqt o'tishi bilan yangi ishlab chiqarish shakllarining vujudga kelishi, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi iqtisodiy, psixologik va ijtimoiy hodisalarning o'zaro ta'siri shunga olib keldiki, ayrim g'ayriijtimoiy qilmishlar nisbatan ommaviy hodisaga aylanib qoldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jinoyatchilik – shubhasiz, g'ayriijtimoiy salbiy hodisa hisoblanadi. Holbuki, kriminologiya tarixida uni ijtimoiy ijobiy hodisa sifatida baholashga urinishlar ham bo'lgan. XIX asrda yashagan taniqli sotsiolog Emil Dyurkgeym "jinoyatchilik taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuch, u jamiyatda muhim foydali funksiyani bajaradi"[5.39;] degan fikrni ilgari surgan. Amerikalik sotsiolog R.Merton fikriga ko'ra esa, "jinoyatchilik – ijtimoiy hayot sur'atlari jadallashuvi hisobiga jamiyat to'lashi lozim bo'lgan haq"dir[6.7;]. Amerikalik olim Tannenbaum 1944-yilda Barnz va Titerzning "Kriminologiyaning yangi ufqlari" nomli kitobiga yozgan so'z boshisida "Jinoyatchilik – jamiyat kabi abadiydir. Jinoyatchilikka barham berish mumkin emas. Jinoyatchilik – kasallik, o'lim kabi abadiy hodisadir",[7.16;] deb ta'kidlagan edi. Nemis kriminologi Armand Morgen 1961-yilda "jinoyat - qadim zamonlardan beri mavjud bo'lgan va toki jamiyat mavjud ekan, hech qachon yo'qolmaydigan hodisadir", deb yozgan edi. Ayrim shu sohaning olimlari jinoyatchilik nafaqat normal, balki foydali

hodisadir, chunki u jamiyat a'zolarida hamjihatlik tuyg'ulari mustahkamlanishiga ko'maklashadi, degan fikrni ham ilgari surgan. Bu fikrlarga qo'shilish qiyin, chunki jinoyatchi eng avvalo o'zini boshqa shaxslarga qarama-qarshi qo'yadi, ularning manfaatlarini muayyan jinoiy qilmish bilan buzishga olib keladi. Shu bois jinoyatchilik – jinoyat-huquqiy hodisadir, chunki uning tarkibidan o'rin olgan jinoyatlar doirasi amaldagi jinoyat qonunchiligida belgilab qo'yiladi. Jinoyatchilik xususida so'z yuritganda, davlat tomonidan tan olingan ijtimoiy-xavfli va g'ayrihuquqiy qilmishlar (harakatlar yoki harakatsizlik) majmuidan kelib chiqishiga odatlanganmiz. Jinoyatchilik o'zining huquqiy belgisi bilan boshqa ijtimoiy hodisalar (axloqiy normalardan), jinoyat-huquqiy belgisi bilan esa – boshqa, jinoyat hisoblanmaydigan jinoiy (intizomiy, ma'muriy, fuqarolik-huquqiy) huquqbuzarliklardan farq qiladi. "Jinoyatchilik darajasi muayyan hududda sodir etilgan jinoyatlar miqdoridan kelib chiqib, shu hududda yashaydigan aholi soniga nisbatan hisoblanadi"[8.109;]. Daraja ko'rsatkichlari faqat nisbiy raqamlarda ifodalanadi. Jinoyatchilik darajasini yanada aniqroq aniqlash uchun butun aholini emas, balki vakillari amaldagi jinoyat qonunchiligiga muvofiq jinoyat uchun javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan yosh guruhlarinigina hisobga olish zarur. Ayrim olimlar jinoyatchilikning holati va darajasini aniqlashda muayyan hududda ma'lum vaqt davomida sodir etilgan jinoyatlar va ularni sodir etgan shaxslar to'g'risida so'z yuritadilar. Bizning fikrimizcha, jinoyatchilikning holatini aniqlashda muayyan davr ichida (falon yilning falon oyidan falon yilning falon oyigacha) sodir etilgan jinoyatlar emas, balki muayyan sanaga (davrga) qadar sodir etilgan jinoyatlar ko'rsatkichi olinsa, o'rinliroq bo'ladi. Bu nafaqat jinoyatchilikning muayyan sanaga qadar bo'lgan holati to'g'risidagi masalani yechish, balki jinoyatchilikning muayyan sanaga qadar bo'lgan holatini jinoyatchilikning muayyan davrdagi dinamikasidan farqlash uchun ham zarurdir. Jinoyatchilikning holati sodir etilgan barcha jinoyatlar va ularni sodir etishda aybdor shaxslar miqdori bilan belgilanadi. Jinoyatchilikning holatini mutlaq miqdorda ham, koeffitsiyent miqdorida ham aniqlash mumkin. Jinoyatlar miqdorini aniqlashda quyidagilar hisobga olinadi: a) sud hukmi bilan yuritish tugallangan jinoyatlar; b) aybdor shaxslar jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilingan (amnistiya bo'yicha yoki jinoiy jazo tarbiyaviy yo'sindagi majburlov choralari yoki tarbiyaviy yo'sindagi choralar yoxud ma'muriy ta'sir choralari bilan almashtirilishi munosabati bilan) jinoyatlar; v) ochilmagan, lekin mavjud ma'lumotlarga ko'ra sodir etilgan jinoyatlar. Jinoyatchilarning umumiy miqdorini aniqlashda quyidagilar hisobga olinadi: a) mahkumlar haqidagi ma'lumotlar; b) jinoiy javobgarlikdan yoki jazodan ozod qilingan shaxslar haqidagi ma'lumotlar. Yig'ma tushuncha bo'lgan jinoyatchilikning holati nafaqat miqdoriy belgilar, balki sifat belgilari, chunonchi, tarkibiy xususiyatlari, jinoyatlardan ko'rilgan zarar, iqtisodiy, uyushgan, takroriy yoki boshqa jinoyatchilik darajasi bilan ham - tavsiflanishi mumkin ki[9.8;], bu jinoyatchilik tarkibini tahlil qilishda mufassalroq o'rganiladi. Jinoyatchilikning darajasi bir qancha koeffitsiyentlar bilan aniqlanadi. Koeffitsiyentlar har xil bo'lishi mumkin, lekin ular orasida jinoyatchilik, aniqrog'i – jinoyatlar koeffitsiyenti va aholining kriminogen zararlanganlik koeffitsiyenti muhim o'rin egallaydi. Jinoyatchilik koeffitsiyenti hisobga olingan barcha jinoyatlar umumiy miqdori va tanlangan mintaqa aholisining muayyan massa (miqyos)ga bo'lingan umumiy miqdori nisbati sifatida aniqlanadi. Odatdajahon kriminologiya amaliyotida u 100 ming kishiga teng deb olinadi. Ammo massa (miqyos) harakatchan kategoriya bo'lib, muayyan ma'muriy yoki boshqa hudud (muayyan kontingent, mintaqa, respublika, o'lka, viloyat, tuman, shahar)da yashovchi aholining umumiy miqdoriga qarab o'zgarishi mumkin.

Jamiyatning barqarorligi yoki uning beqarorligi ko'p jihatdan uning mustahkamligi, unda istiqomat qilayotgan kishilarning hayoti ongli va yuksak axloqiy tamoyillarga tayanishiga ham bog'liq bo'ladi. Jamiyatda shunday hodisalar bo'ladi, ular ba'zan jamiyat hayotiga xizmat qilmaydi va jamiyat a'zolarining manfaatlarini ifoda etmaydi. Jinoyatchilik ham amaldagi axloqiy, ma'naviy, huquqiy tamoyillar ustuvor bo'lgan jamiyat hayotiga zid hodisa sifatida uning taraqqiyotiga xizmat qilmasdan, uni tanazzulga yetaklaydi. Shu jihatdan, jamiyat a'zolari turli ijtimoiy tashkilotlar, sotsial institutlar jinoyatchilikni qoralab, unga qarshi kurashlar olib boradilar. Shu nuqtai nazardan, avvalo jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi sabablar va motivlarni sinchiklab o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, har qanday jinoyatchilik ijtimoiy hodisa sifatida tasodifan ro'y bermaydi. Ayrim holatlarda ehtiyotsizlik oqibatida kelib chiqadigan jinoyatlar ham aslida o'ziga xos muayyan ijtimoiy negizlarga ega bo'ladi. Shu sababli, jinoyatchilik hodisasini shart-sharoitlarga bog'liq sabablarini aniqlamasdan turib, unga qarshi kurash olib borish ham o'z samarasini yetarlicha bera olmaydi. Ularni chuqur va har tomonlama o'rganishdan so'ng turli usul va vositalar orqali kurashish lozim bo'ladi. Jinoyatchilikka samarali qarshi kurash olib bormaslik turli jinoyatlarning ildiz otishiga sababchi bo'ladi. Bu esa jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jinoyatchilik sababli jamiyatning

ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga xavf paydo bo'lib, davlat va jamiyat moddiy va ma'naviy zarar yetishi, kishilarning tinch osoyishta hayoti, turmush tarzining izdan chiqishiga olib keladi. Davlat boshqaruvidagi beqarorlik, tartibsizliklar, axloqiy yemrilishlarga ham sabab bo'ladi. Shu ma'noda, jinoyatchilik – muayyan makon, mintaqada ma'lum davr ichida sodir etilgan barcha jinoyatlar majmui ko'rinishidagi tarixan o'zgaruvchan, salbiy, obyektiv va ijtimoiy hodisadir. Jinoyatchilik o'zining huquqiy belgisi bilan boshqa ijtimoiy hodisalar, axloqiy normalardan, jinoyat-huquqiy belgisi bilan esa – boshqa, jinoyat hisoblanmaydigan jinoyat intizomiy, ma'muriy, fuqarolik-huquqiy, huquqbuzarliklardan farq qiladi.

Jinoyat-bu ijtimoiy xavfli ayb qilmish hisoblanib, u jinoyat kodeksida jazolanish orqali taqiqlangan. Shubhasiz barcha jinoyatlar ijtimoiy jihatdan xavfli va shuning uchun qonunchilik ularning sodir etilishi jazolanishi mumkinligi bilan taqiqlaydi. Bir jinoyatning ijtimoiy xavfining darajasi va xarakteri boshqasidan sezilarli darajada farqlanadi. Jinoyatni ijtimoiy va yuridik hodisa sifatida baholashda uning individga tegishli ongli xulq-atvor turi ekanligini qayd etish lozim.

Har qanday jinoyat qilmishning asosida inson va jamiyat o'rtasida nizoning mavjudligi turadi. Nizoning chuqurligi ijtimoiy xavfni belgilab beradi va shuning uchun uning hal etilishida jinoyat-huquqiy ta'sir o'tkazishning kerakligini ko'rsatmoqda. Shunday qilib jinoyat kishining qandaydir tashqi xulq-atvor akti sifatida namoyon bo'lib u haraqat va harakatsizlik shaklida namoyon bo'ladi va individning iroda va ongi tomonidan nazorat qilinadi.

Jinoyatchilik kategoriyalari deganda jinoyat qilmishlarning barcha jinoyatlar uchun belgilangan mezon, yagona salmoqli belgiasosida guruhlarga bo'linishi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksi jinoyatlarning quyidagi kategoriyalarini: ijtimoiy xavfli katta bo'lmagan, og'ir jinoyatlar va o'ta og'ir jinoyatlarni nazarda tutadi. Jinoyat qilmishlar ijtimoiy xavfining darajasi va xarakteriga ko'ra yuqorida sanab o'tilgan kategoriyalarga tegishlidir.

Ijtimoiy xavfli deb jinoyatning davlatdagi himoya qilinadigan munosabatlarga zarar va tahdid yetkazilishi nazarda tutiladi. Ijtimoiy xavflilik u yoki bu shaxsni javobgarlikka tortish uchun asos hisoblanib, shuningdek jazoning individuallashuvi uchun asosiy mezon hisoblanadi.

Ijtimoiy xavflilikning xarakteri va darajasi bir-biriga bog'liq bo'lib ular bir jinoyat qilmishning turli tomonlarini aks ettiradi. Ijtimoiy xavfning xarakteri sifat tomoni hisoblanib u qilmish qaratilgan obyektga aniqlab beradi. U davlat tomonidan muhofaza qilinayotgan munosabatlarning hajmi va miqyosini aniqlashga imkon beradi.

Ijtimoiy xavfning darajasi miqdor jihatida hisoblanib u qilmishning holatini belgilab beradi. U obyektga yetkazilgan zararining hajmiga bog'liq bo'lib obyektiv tomonning turli belgilarini aks ettiradi.

Kategoriyalarga ko'ra jinoyatlarning tasnifi birinchi navbatda amaliy xarakterga ega va xavfli, o'ta xavfli retsidivning ta'rifi jinoyat javobgarlikdan ozod qilish, jazoning o'talmay qolgan qismini o'zgartirish, jinoyat javobgarlikning amalga oshirilish jarayoni va voyaga yetmagan kishilarga jazoni tayinlash, jinoyatni sodir etishga tayyorgarlik uchun jinoyat javobgarlik, yengillashtiruvchi va og'irlashtiruvchi va holatlarning borligi ta'rifi, shuningdek boshqa ko'plab savollarni hal etishga katta ahamiyatga ega.

Jinoyatlarning tasnifi shuningdek, aybning subyekti, shakli va obyektiv tomonga ko'ra amalga oshirilishi mumkin. Ayb sifatida kishining u tomondan qilinayotgan ijtimoiy xavfli harakati yoki harakatsizligiga va kelib chiqqan oqibatlariga nisbatan psixik munosabatidir. Agarda mezon sifatida ayb ishning shaklini qo'llasak, unda jinoyatlar [10.119.] 1. To'g'ridan-to'g'ri jinoyatlar. 2. Bevosita qasddan sodir etilgan jinoyatlar, shuningdek 3. Ehtiyotsizlik natijasida sodir etiladigan jinoyatlarga bo'linadi.

Jinoyatlarning kategoriyalarga bo'linishi qonun chiqaruvchiga bog'liq hisoblanib, u jinoyatni tasnif etishni jinoyat-huquqiy meyorlar va institutlarni tuzishda ishlatishga majburlaydi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining umumiy qismida jinoyatga tayyorlanish uchun jinoyatlarning tasnifini inobatga olgan javobgarlik belgilangan. Shuningdek jinoyatlarni kategoriyalashtirishga bog'liq tarzda belgilangan muddatning tugashi bilan kishining javobgarlikka tortmaydigan retsidiv va da'vo muddatining shakllari aniqlanadi. Mezonlar rasmiy bo'lishi mumkin, shuningdek noqonuniylikning belgilarini o'zida uyg'unlashtirishi mumkin.

Yangi O'zbekiston sharoitida mamlakatimizda jinoyatchilikka qarshi kurash bilan bog'liq ishlarni isloh qilish, jamiyatni sog'lomlashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Jinoyatchilik bilan bog'liq holatlar, uning ko'lami va o'sish tendetsiyalarini aniqlash, o'z vaqtida oldini olish choralarini ko'rish bo'yicha profilaktik tadbirlar keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan alohida

e'tibor huquqni qo'llash amaliyotining huquqiy bazasini takomillashtirishga, huquq tartibot organlari darajasining oshirilishiga qaratilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jinoiy huquq nazariyasida o'rnashib qolgan tartiblar va institutlarni qayta baholash va ularni ko'rib chiqish, ularni yangi axloqiy mazmun bilan to'ldirishning murakkab jarayoni davom etmoqda. Xalqimizda kasallikni davolashdan ko'ra uni oldini olishga shoshilish kerak degan ibora ko'p qo'llaniladi. Shunga ko'ra jinoyatchilikni kamaytirish uchun respublikamizda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarini yanada rivojlantirishga uni yangi bosqichga ko'tarishga harakat qilinmoqda.

Jinoyatchilikning holati tushunchasiga tor va keng nuqtai nazardan yondashish mumkin. Keng ma'nodagi jinoyatchilikning holati tushunchasi nafaqat uning darajasini, balki tarkibi va dinamikasini ham qamrab oladi. Tor ma'nodagi jinoyatchilikning holati tushunchasi muayyan davrda, tarixiy bosqichda jinoyatchilik darajasini aks ettiradi. Albatta, jamiyat barqarorligi ko'p jihatdan ushbu jamiyatda kishilarning o'zaro hamjihatikda, tinch-totuv, osoyishta yashashlariga ham bog'liq bo'ladi. Bu jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy rivojlanishiga ham ta'sir o'tkazadi. Oilalardagi sog'lom muhit, qarindosh-urug'chilik munosabatlaridagi ahillik, ta'lim tarbiya maskanlaridagi ijtimoiy-ma'naviy muhit, yoshlar o'rtasidagi turli munosabatlarning ijobiyligi har qanday noxushliklarning kelib chiqishini kamaytiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Фокс В. Введение в криминологию. – М.: “Прогресс”, 1985. – С.17.
2. Коган В.М. Социальные свойства преступности. – М., 1977. –Б. 37.
3. Кудрявцев В.Н. Генезис преступления. Опыт криминологического моделирования. –М., 1998. –С.16.
4. Хеккхаузен Х. Мотивация и деятельность. Том 1. – М., 1986. –С. 14.
5. Дюркгейм Э. Норма и патология // Социология преступности. – М., 1966. -С. 39.
6. Р.Мертон Преступление как социально патологическое явление. – СПб., 1900. –С. 7.
7. Блувштейн Ю.Д. Теоретические вопросы статистического познания личности преступника по материалам уголовных дел о грабежах и разбойных нападениях // Автореферат канд. дисс. –М., 1968.С.8.
8. Пензина М.С.Вестник молодых ученых и специалистов Самарского университета.2016. №2(90).- С.119-120.